



## NAVOI REGION'S LIGHT INDUSTRY IN THE ERA OF RENEWAL

**Shukhratjon Boymakhammadovich Kholikulov**

*Independent Researcher at Bukhara State University*

*Bukhara, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Navoi region, light industry, textile industry, export, investment, modern technology, employment, knitwear products, enterprise, cluster, silk production, production volume.

**Received:** 01.07.25

**Accepted:** 02.07.25

**Published:** 03.07.25

**Abstract:** This article highlights the reforms carried out in the light industry of Navoi region during 2017–2023, particularly in the textile sector. It analyzes the establishment of new enterprises, creation of jobs, and export volumes. The introduction of modern technologies and attraction of foreign investments are also noted. The share of production by district is presented. Overall, the article reveals the textile potential and development prospects of the region.

## NAVOIY YENGIL SANOATI YANGILANISH DAVRIDA

**Shukhratjon Boymaxammadovich Xoliquulov**

*Buxoro davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi*

*Buxoro, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Navoiy viloyati, yengil sanoat, to'qimachilik sanoati, eksport, investitsiya, zamonaviy texnologiya, ish o'rni, trikotaj mahsulotlari, korxona, klaster, pillachilik, ishlab chiqarish hajmi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada 2017–2023 yillarda Navoiy viloyatida engil sanoat, ayniqsa to'qimachilik sohasida amalga oshirilgan islohotlar yoritilgan. Yangi korxonalar tashkil etilishi, ish o'rnlari yaratilishi va eksport hajmlari tahlil qilingan. Zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investisiyalar jalg qilingani qayd etilgan. Tumanlar kesimida ishlab chiqarish ulushlari ko'rsatilgan. Umuman, maqola viloyatning to'qimachilik salohiyati va istiqbollarini ochib beradi.

## ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД ОБНОВЛЕНИЯ

**Шукратжон Боймакхаммадович Холикулов**

*соискатель Бухарского государственного университета*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Навоийская область, лёгкая промышленность, текстильная промышленность, экспорт, инвестиции, современные технологии, рабочие места, трикотажные изделия, предприятия, кластеры, производство шелка, объёмы производства.

**Аннотация:** В данной статье освещены реформы, проведённые в 2017–2023 годах в лёгкой промышленности Навоийской области, особенно в сфере текстильной промышленности. Проанализированы создание новых предприятий, создание рабочих мест и объёмы экспорта. Отмечено внедрение современных технологий и привлечение иностранных инвестиций. Приведены данные о доле производства в разрезе районов. В целом, статья раскрывает текстильный потенциал и перспективы региона.

**Kirish.** 2017-2019 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq 2017 yil 11 noyabrda “Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3408-son qarori qabul qilindi [1]. Shunga asosan “O‘zbekpaxtasanoat” AJ tashkil etildi. Uning tashkiliy tuzilmasiga 98 ta paxta tozalash korxonalari, 13 ta transport korxonalari, 10 ta paxta tozalash korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi viloyat texnika ustaxonasi, 5 ta ekiladigan urug‘lik chigit tayyorlash korxonalari, 19 ta ixtisoslashtirilgan paxta terminallari, “Moddiy-texnika ta’minoti bazasi” MCHJ, “Paxta sanoat milliy markazi” AJ va boshqalar kiritildi[2.3-B].

Iqtisodiyot rivojida ishlab chiqarish korxonalarining ahamiyati katta. Shu bilan bir qatorda, hududdagi yoshlarni ish bilan ta’minalash, sifatli hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarishda ham yirik korxonalarning o‘rni beqiyos.

2017-yilda Xatirchi tumanida «XATIRCHI ASILBEK TEKSTIL» mas’uliyati cheklangan jamiyati, 2019-yilda Qiziltepa tumanida «QO’LDOSH-BOBO KELAJAGI» oilaviy korxonasi, 2020-yilda Karmana tumanida «NAVSELIN» mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo’shma korxonasi, Qiziltepa tumanida «YARASH OTA CHORVASI» mas’uliyati cheklangan jamiyati va «MANG’IT SAXOVATI 2020» mas’uliyati cheklangan jamiyati, 2022-yilda Qiziltepa tumanida «HIOL DENIM» mas’uliyati cheklangan jamiyati, Xatirchi tumanida «BARNO QIZLAR 2022» xususiy korxonasi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu korxona va tashkilotlar boshqa tolalarni tayyorlash va yigirish bilan shug‘ullangan va Navoiy viloyati to‘qimachilik sanoatida muhim ahamiyat kasb etgan. Navoiy viloyati to‘qimachilik sanoatida 2016-yilda 336,7 mlrd. so‘m, 2017-yilda 482,0 mlrd. so‘m, 2018-yilda 578,8 mlrd. so‘m, 2019-yilda 875,4 mlrd. so‘m, 2020-

yilda 1 087,9 mlrd. so‘m, 2021-yilda 1 397,0 mlrd. so‘m, 2022-yilda 1 564,1 mlrd. so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan[3].

Viloyatda ishlab chiqarish sanoatining tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2016-yilda 4,6 foizni, 2017-yilda 5,4 foizni, 2018-yilda 3,2 foizni, 2019-yilda 2,4 foizni, 2020-yilda 2,0 foizni, 2021-yilda 2,3 foizni, 2022-yilda 2,3 foizni, 2023-yilda 2,3 foizni tashkil etdi[4].

2013-yilda barpo etilgan, Navoiy viloyati sanoatida loyiha qiymati 2 mln AQSH dollariniga ega bo‘lgan “BRIGHT NAVOI TEXTILE” qo‘shma korxonasi muhim o‘rin tutadi. Navbahor tumanida joylashgan ushbu yengil sanoat kompleksi tashkil topgan vaqtida yiliga 4 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega edi. 180 nafar ishchi xizmat qiladi. 2019-yil oxiriga kelib, korxonaning qo‘shimcha yana bir sexi isha tushdi va qo‘shimcha ikki tonna mahsulot ishlab chiqarila boshlandi. Bu esa yana 30 ta ishchi o‘rni yaratilishiga olib keldi. Korxona ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib bermoqda[4].

Prezidentimizning 2017-yil 28-martdagi Navoiy viloyatiga qilgan tashrifida berilgan topshirig‘iga asosan, Xatirchi tumanida 6 ming tonna ip-kalava, 6 mln kv.metr gazlama, 4 ming tonna bo‘yagan ip mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega tekstil korxonasi ishga tushirilib, 1000 ta ishchi o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan edi. “Mustaqillik” mahallasi hududidagi 8 hektar maydonda faoliyat olib borayotgan “NAVOIY FAYZCOM TEXTILE” MCHJ da 377 nafar ishchi-xodim ishlamoqda. Mahsulotlarni sifatli ip-kalava sexini to‘liq ishga tushirish maqsadida Pokiston Islom Respublikasidan 7 nafar xorijlik mutaxasislar jalb qilingan. Yirik quvvatga ega texnologiyalar Germaniya, Belgiya, Turkiya davlatlarida olib keltirilgan. 2023-yil iyul oyida Rossiya Federatsiyasi bilan 1 mln dollar qiymatga ega shartnoma imzolandi. Korxonada bir oyda 400 tonnagcha ip-kalava mahsuloti ishlab chiqarilmoqda[5].

2020-yilda Janubiy Koreya davlati investorlari bilan hamkorlikda “NAVSELIN” MCHJ shakidagi tekstil mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxona tashkil etildi. Navoiy erkin iqtisodiy zonasida amalga oshirilgan ushbu loyiha uchun 4 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi[6].

2023-yilda Qiziltepa tumanida «BHR BETA TEKS» mas’uliyati cheklangan jamiyati, Navoiy shahrida «STUFF TRADE» mas’uliyati cheklangan jamiyati va «NAVKO» mas’uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilgan bo‘lib, ushbu korxona va tashkilotlar boshqa texnik va sanoat to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan. Respublikamizda yengil sanoatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari assortimetini kengaytirish, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ishlab chiqarish loyihalari misolida ko‘rishimiz

mumkin. Loyiha qiymati 10 mlrd so‘mni tashkil etuvchi, 500 ish o‘rni quvvatiag ega “BHR BETA TEXS” MCHJ korxonasi fikrimizning isbotidir. Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologiyalar o‘rnatilgan bo‘lib, 20 ortiq turdagি tekstil mahsulotlari ishlab chiqariluvchi korxonada ayni vaqtda 4 ta guruhda 4 xil mahsulot tayyorlanadi. Birinchi guruhda asosan futbolka tikilib, bu 6 jarayonda amalga oshirilib, soatiga 100-150 dona, bir kunda 1000 dan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi. Ikkinci guruhda mакtab formasi tayyorlanadi. Bir soatda 30-40 ta, bir kunda 360-400 ta mакtab formasi tayyorlanadi. Jami bir kunda 3000 dan ortiq tekstil mahsuloti ishlab chiqariladi. Mahsulotlar Rossiyaning 10 dan ortiq firmalariga eksport qilindi va ushbu sanoat obyyektining 1,5 mln dona mahsuloti eksportga yo‘naltirilgan [7]. “Mahsulotlarni Fransiyaga ekport qilishni rejalashtirayapmiz. Maqsadimiz xalqaro darajada tan olingan standartlarga muvofiq mahsulotlarni ishlab chiqarish va qo‘s Shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish” – deydi MCHJ korxonasi rahbari Elyor Quvvatov[8].

2022-yilda Navoiy viloyatida sanoati tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda tumanlarning ulushi quyidagicha bo‘ldi: Zarafshon shahri 18,6 foiz, G‘ozg‘on shahri 3,0 foiz, Karmana tumani 0,7 foiz, Konimex tumani 7,2 foiz, Qiziltepa tumani 55,7 foiz, Navbahor tumani 54,7 foiz, Nurota tumani 7,3 foiz, Tomdi tumani 13,7 foiz, Uchquduq tumani 4,9 foiz, Xatirchi tumani 9,8 foiz bo‘ldi[3].

Navoiy viloyatining eksport hajmida paxta tolasi sotish ham muhim o‘rin tutgan. Jumladan, 2016-yilda 23165,8 ming AQSH dollari, 2017-yilda 9569,4 ming AQSH dollari, 2018-yilda 2650,6 ming AQSH dollari, 2019-yilda 1718,9 ming AQSH dollarilik paxta tolasi eksport qilingan[3].

2019-yilda Rossiya Federatsiyasining “INSOFT” kompaniyasi bilan hamkorlikda Navbahor tumanida “MAROQAND PLAST” MCHJ qo‘shma korxonasi tashkil etildi va korxonada gilam ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [4]. 2021-yilda Uchquduq tumanida «UCHQUDUQ HUNARMAND GILAMLAR KLASTERI» mas’uliyati cheklangan jamiyatni tashkil etilgan va ushbu korxona gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan.O‘zbekiston Respublikasida 2018 yilda “O‘zto‘qimachilik” sanoat uyushmasi tarkibida 1436 ta korxona bo‘lib, ularning 5 tasi aksionerlik jamiyatları, 74 tasi qo‘shma korxona, 109 ta chet el korxonaları, 1056 ta ma’suliyati cheklangan jamiyatlar hamda 192 ta boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar sıfatida faoliyat olib bormoqda. To‘qimachilik sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan junni qayta ishlash bugun daromad sohalari qatorida. Buni Konimex tumanida faoliyat olib borayotgan “Obod Konimex chashmalari” MCHJ misolida ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatda tuyu va qo‘y junlari qayta ishlaniб, 11 turdagи mahsulotlar tayyorlangan. Korxona o‘z faoliyatini 2023-yil mart oyida boshlagan. Yillik ishlab chiqarish quvvati 500 ming tonnaga teng edi. Loyihanining umumiy qiymati 7,5 mlrd so‘mni tashkil etib, sanoat obyyektida 25 nafar fuqaro ish bilan

ta'minlangan. "Hozirda yengil avtomobillar uchun ovoz qaytargich, qurilishda issiqlik saqllovchi materiallar, namat va kigiz mahsulotlari, otlar uchun maxsus abzal ishlab chiqarayapmiz" – deydi korxona rahbari Nafiddin Hayitov[9].

Korxonada junni qayta ishslash 11 bosqichda malga oshiriladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 50 foizi Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalariga eksport qilinmoqda. Joriy yilning aprel oyida 20 ming AQSH dollariga teng mahsulot Qozog'istonga eksport qilindi. Korxonada junni qayta ishlovchi 4 turdag'i liniyalar Xitoy Xalq Respublikasidan 320 ming AQSH dollariga ketirilgan bo'lib, tikuv sexida 6 ta tikuv mashinasi mayjud[10].

2018-yilda Karmana tumanida «ALP KAMOL O'KTAM» oilaviy korxonasi, Zarafshon shahrida «XIMZAR-OPTIMAL» xususiy korxonasi, 2021-yilda Karmana tumanida «WEAVERS DYNASTY» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2023-yilda Zarafshon shahrida «CINAR EXPORT TEKSTIL» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilgan bo'lib, ushbu korxona va tashkilotlar ip gazlama ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Mazkur ko'rsatkichlarga erishish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi 2016 yil 21 dekabr PQ-2687-son[11], "Respublika hududlarida tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019 yil 28 maydagi PQ-4341-son, Vazirlar Mahkamasining "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 19 sentabrdagi 744-son[12] hamda tarmoqqa oid boshqa bir qator qarorlar qabul qilinishi natijasida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar samarasini bo'lib ko'rinxoqda.

Yengil sanoat sohasini rivojlantirish, xususan, trikotaj yo'nalishida korxonalar tashkil etish joylarda aholini, ayniqsa, xotin-qizlarning ish o'rinaliga ega bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan yengil sanoat korxonalarini faoliyati bunga misol bo'ladi. Xususan, Qiziltepadagi eng zamonaviy korxonalardan biri «Toshrabit-textile» mas'uliyati cheklangan jamiyatda, ayni paytda, mazkur hududning 300 nafardan ziyod aholisi faoliyat yuritmoqda. Bu yerda yiliga 2 million 250 ming dona trikotaj mahsuloti ishlab chiqarilib, tovarlarning asosiy qismi eksportga yo'naltirilayapti. Jumladan, Rossiyadan tashqari, Yevropa bozorlarida ham «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» tamg'asi tushirilgan mahsulotlarni uchratish mumkin. Eng muhimi, bunday kiyimlar aynan qiziltepalik chevarlar qo'lida tayyorlanmoqda. Yaqin kelajakda bu yerdagi ish o'rnlari 500 taga yetkaziladi. Korxonada ishchi-xodimlar uchun barcha shart-sharoitlar kelib-ketish uchun avtobus, issiq ovqat hamda boshqa bir qator imkoniyatlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari 2017 yil 27-28 mart kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida aynan mana shu korxonaning tashkil etilish jarayonlarini ham ko'zdan kechirgan edi. Mazkur tashrif

chog‘ida Yurtboshimiz hududlarda yetishtirilayotgan paxtani shu yerning o‘zida qayta ishlash nafaqat tadbirkorlarning, balki aholining ham daromadlari oshishida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholining bandligini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida Zarafshon shahrida Turkiya davlati bilan hamkorlikda “Amesa Zarafshon textile” MCHJ shaklidagi xorijiy korxonasi barpo etildi. Yengil sanoat obyyektida 130 nafar ishchi-xodim faoliyat yuritdi. 2019-yil may oyidan korxona boshlab tikuv-trikotaj mahsulotlarini ham chiqara boshladи. Ish ikki smenad tashkil etilgan. Ishchilar korxonada faoliyat boshlashdan avval tayyorlov kurslarida tahsil olib, yoshlarga tadbirkorlikni qanday tartibda yo‘lga qo‘yish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, bozor talabalarini o‘rganish, xodimlarning mehnat muhofazasi masalalarida maslahat va tavsiyalar beriladi[13].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-martida Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida G‘ozg‘onga shahar maqomini berish, hududning sanoatini rivojlantirish yuzasidan mutasaddilarga bir qancha topshiriqlar berilgan edi. 2020-yil G‘ozg‘onda “O‘zpaxtasanoat” AJ ta’sischiligida “Premiyer textile” MCHJ ga qarashli umumiyligi qiymati 1,7 mlrd so‘mlik trikotaj korxonasi ishga tushirildi. Ushbu korxona asosan turli tashkilotlar ishchi xodimlariga maxsus kiyim tayyorlashga ixtisoslashtirilgan edi. 100 nafardan ortiq xotin-qizlar mehnat qilgan korxona 2020-yilda 600 ming AQSH dollari qiyamatiga ega mahsulotlarni eksport qildi[14].

Navbahorda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan «Navbahor kasaba chevarlari» tikuv sexi loyihasiga Xalq banki tomonidan 4 mlrd so‘m krediti va tashabbuskorlarning 2 mlrd so‘m o‘z mablag‘lari jalb qilindi. Eng quvonarlisi, tikuv sexining ochilishi natijasida 400 - nafar ayollar va yoshlar ish bilan ta’mindipli. Korxonada 10 turdan ortiq turli xil kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Navoiy viloyatida mavjud yakka qator tut daraxtlari 3 mln 59 ming tup va 1 ming 100 hektar tutzorlar maydonini tashkil etadi. Shundan 2019 yil kuz va 2020 yil bahor oylarida ekilgan tut ko‘chat soni:

- yakka qator tut daraxtlari – 1 mln 766 ming tup;
- yangidan barpo etilgan tutzor – 46,5 hektar;

2019 yilda 15 ming 500 quti ipak qurti parvarishlanib, 879.1 tonna (103,4 foiz) tirik pilla yetishtirilgan. 2020 yilda 16 183 quti ipak qurti parvarishlanadi, 890 tonna pilla yetishtiriladi. Navoiy viloyatida 3 ta (“Al Aziz ipagi” MJCH, “Qiziltepa pilla xazinasi” MCHJ, “Xatirchi pilla xazinasi” MCHJ) pillani qayta ishlash korxonalari mavjud. 29,3 ming ta ish o‘rinlari yaratiladi (shundan 832 ta doimiy 28,5 ming ta mavsumiy)[14].

Navoiy viloyatida 2022-yilda faoliyat ko‘rsatayotgan 4 ta yengil sanoat klasterlari mavjud bo‘lib, ular: “Baxt textile” MCHJ, “Navbahor textile” MCHJ, “Textile Navoiy Groupe”MCHJ, “Xudoyshukur bobo” MCHJ. Mazkur davrda ushbu klasterlarning eksport hajmi, jami 57 781,4 ming AQSH dollar tashkil etdi[15].

2022-yilda Navoiy viloyati hududlarining yengil sanoat rivojlanishi darajasiga ko‘ra quyidagicha guruhash mumkin:

1. Yengil sanoat rivojlanishi yuqori bo‘lgan hududlar: Navoiy shahri, Navbahor tumani, Qiziltepa tumani.
2. Yengil sanoat rivojlanishi nisbatan yuqori bo‘lgan hududlar: Zarafshon shahri, Xatirchi tumani, Konimex tumani.
3. Yengil sanoat rivojlanishi past bo‘lgan hududlar: Nurota tumani, Uchquduq tumani, G‘ozg‘on shahri.
4. Yengil sanoat rivojlanishi nisbatan past bo‘lgan hududlar: Karmana tumani, Tomdi tumani.

2022-yilda Navoiy viloyat sanoatida band bo‘lgan ishchi-xodimlarning umumiylar sonida yengil sanoat tarmog‘ining salmog‘i 54,4 foizni tashkil etadi. 2022-yil xolatida 459 yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik subyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lib, mazkur davrda 371 ta subyekt, yoki 81 foizi faoliyat yuritmoqda[16].

Korxonalarning hududlar bo‘yicha joylashishi va tarmoq tarkibida ham keskin farqlar mavjud. Ro‘yxatdan o‘tgan va bugungi kunda faoliyat yuritayotgan korxonalarning 19,1 foizi Qiziltepa, 14,6 foizi Xatirchi, 14,5 foizi Karmana tumanlariga va 17,6 foizi Navoiy shahriga to‘g‘ri keladi. Mavjud 23 yirik yengilsanoat korxonalarining 6 tasi o‘z faoliyatini to‘xtatgan. Bu holat shahar va tumanlarda yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda[16].

2023-yil avgust holatiga ko‘ra, Navoiy viloyatida 115 ta to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxona va tashkilotlar mavjud edi. Shundan, 15 tasi paxta tolalarini tayyorlash va yigirish, 11 tasi jun tolalarni tayyorlash va yigirish, 8 tasi boshqa tolalarni tayyorlash va yigirish, 4 tasi ip gazlama ishlab chiqarish, 4 tasi jun gazlama ishlab chiqarish, 2 tasi ipak gazlama ishlab chiqarish, 2 tasi boshqa gazlamalar ishlab chiqarish, 4 tasi to‘qimachilik mahsulotlarini bezash, 2 tasi to‘qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish, 29 tasi kiyimdan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, 1 tasi gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish, 1 tasi arqon, kanat, chilvir, bog‘ichlar ishlab chiqarish va to‘r to‘qish, 7 tasi kiyimdan tashqari noto‘qima mahsulotlar ishlab chiqarish, 25 tasi boshqa toifalarga kiritilmagan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, respublikada jumladan, viloyatimiz to‘qimachilikni rivojlantirish va jahon tekstil bozorida muhim o‘rinlarni qayd etish bo‘yicha yetarlicha moddiy va mehnat resurslariga ega bo‘lib, bu borada zamonaviy texnologiyalar va innovatsion uslublar rejimi qo‘llanildi. Yengil sanoat sohada xususiy sektorning rolini oshirishga alohida ahamiyat qaratildi. Respublikamiz yalpi ichki mahsulotining muttassil o‘sishi raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga ta’minlandi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro`yxati:

1. <https://lex.uz/docs/3429584>
2. Salimov A. Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertifikatlash. – Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2019. – B. 3
3. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. <https://www.navstat.uz>
4. Do’stlik bayrog’i. 2019-yil 9-avgust. № 63.
5. Do’stlik bayrog’i. 2023-yil 10-avgust. № 32.
6. Do’stlik bayrog’i. 2020-yil 12-fevral. № 8.
7. Do’stlik bayrog’i. 2023-yil 13-iyul. № 28.
8. Navoiy viloyat “BHR BETA TEXS” MChJ korxonasi rahbari E.Quvvatov bilan qilingan suhbatdan. 2023-yil.
9. Navoiy viloyat Konimex tumanidagi “Obod Konimex chashmalari” MChJ korxonasi rahbari N.Hayitov bilan qilingan suhbatdan. 2023-yil.
10. Do’stlik bayrog’i. 2023-yil 6-iyul. № 27.
11. <https://lex.uz>.
12. <https://lex.uz>.
13. Do’stlik bayrog’i. 2019-yil 27-avgust. № 68.
14. Do’stlik bayrog’i. 2020-yil 29-yanvar. № 6.
15. <https://uzbekipaksanoat.uz/uz/tizimdagi-tashkilotlar/navai/>
16. G.I.Norkuvatova. Mintaqada yengil sanoatni rivojlantirish va hududiy tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch – 2023. -B. 14.